

IFODALI NUQNING SHAKLLANISHIDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI.
EPIK, LIRIK VA DRAMATIK TURDAGI ASARLARNI IFODALI O‘QISH

Otaqulova Umida

SamDPI Tillar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Hasanov Husniddin

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.01.2026

Revised: 14.01.2026

Accepted: 15.01.2026

KALIT SO‘ZLAR:

Ifodali nutq, xalq og‘zaki ijodi, lirik asar, dramatik asar, nasriy asar, metodik yondashuvlar, metodik yondashuvlarning amaliy ahamiyati, “Alpomish” dostoni, “Padarkush” dramasi

Mazkur maqolada ifodali nutqning shakllanishida xalq og‘zaki ijodining roli yoritib beriladi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi va adabiy janrlarni integratsiyalashgan holda ifodli o‘qish metodikasi taklif etiladi.

Tadqiqotda epik, lirik va dramatik asarlarini ifodali o‘qish bo‘yicha nazariya va amaliy metodik tavsiyalar taqdim etiladi. Bundan tashqari, “Ifodali o‘qish praktikumi” fanidan qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy metodik yondashuvlar taklif etiladi.

Xalq og‘zaki ijodi - bu xalqning asrlar davomida to‘plangan hayotiy tajribasi, orzu-umidlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi bebaho ma‘naviy merosdir.

Bu ijod namunalari yozma adabiyotdan farqli o‘laroq, og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga o‘tib keladi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi ifodali nuqt yaratishda noyob manba hisoblanadi va o‘quvchilar bu kabi ijod namunalarni o‘rganib, matn mazmunini tushunish

va uni jonli ifodalash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Xalq og'zaki ijodining bir nechta asosiy xususiyatlari mavjud :

Og'zakilik: Asarlar yozib olingunga qadar og'zaki tarzida kuylangan va aytilgan.

Kollektivlik: Muayyan bir shaxsini emas, balki butun bir ijod mahsuli hisoblanadi.

Varietlik: Bir asar turli hududlarida turlicha talqin etilishi mumkin.

An'anaviylik: Avloddan avlodga o'zgaras qoliplar va an'analar asosida o'tib boradi.

Bundan tashqari, turli adabiy janrdagi matnlarni o'qish ham ifodali nuqt va nutq madaniyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

1. Lirik janr: qo'shiq, lapar, yalla, ashula.

Muallifning ichki kechinmalari, hissiy holati va ruhiy olami bevosita ifodalanadi. Lirik janrda voqealar rivoji emas, balki inson qalbida kechadigan tuyg'ular yetakchi o'rin egallaydi. Misol uchun:

“Daryo toshqin, suvlar - to'lqin, o'tolmayman-e,

Otim oriq - manzilimga yetolmayman-e

Otginamni oriq qilgan shul mayda tosh - e

Ranginamni sariq qilgan shul qalam qosh- ey.”

Xalq qo'shig'idagi “Daryo toshqin suvlar- to'lqin....” misrasiga e'tibor bering. Kuyda misralar nola bilan aytiladi va ovoz past, xira, ba'zida jimlik bilan uyg'unlashadi, tinglovchi she'rdagi o'sha ichki kechinmalari idrok etadi. Buni ifodali o'qishda qanday ahamiyati bor?

Bu shunchaki qo'shiq yoki misra bo'lib, kuyga tushmaydi, bu nafaqat ifodali nutq bilan tasvirlanadi. Shu tariqa lirik janrda musiqiy nolani ifodali o'qishdagi psixologik pauza va mantiqiy urg'uga aylantiradi. Bu misralarda asosan, tasavvur, ritm, temp va pauzaga e'tibor qaratiladi.

2. Epik janr: doston, ertak, afsona, rivoyat.

Bunda voqea-hodisalar hikoya qilib beriladi. Bu janr orqali o'quvchi matnlarni ifodali o'qish, hikoya qilish malakasini egallaydi. Xalq dostonlarida xalq taqdiri va tarixiy voqealari xalqning oddiy mushohadalari asosida umumlashtirish hukmronlik qiladi [1, 79].

“Alpomish” dostonidan misol keltirsak: “Alpomish otga minib, el- yurtga so'nggi bor nazar soldi. Uning qalbida bir tomondan qat'iyat va jasorat, ikkinchi tomondan esa eldan ayrilish iztirobi mujassam edi.”

“Alpomish” dostonidagi ushbu parchaga e'tibor bering, bu yerda qahramonning ichki iztiroblari va qat'iyati bir vaqtda tasvirlanadi. Buning samarasida ifodali o'qishga qanday

ta'sir bor? Bunda o'quvchi intonatsiyani mazmunga mos ravishda o'zgartirishiga to'g'ri keladi. Shuningdek, kichik pauza va mantiqiy pauzalarga ham e'tibor qaratadi. Bu orqali asarda tasvirlangan voqea va hodisalar o'quvchi uchun tez va oson yetib boradi, ya'ni asardagi aynan e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan qismlar to'xtam va temp bilan aytiladi

3. Dramatik janr: qo'g'irchoqbozlik, xalq dramalari.

Harakat va dialoglar orqali hayotiy lavhalarini ko'rsatadi. Shuningdek, dramatik asarlarda rivoji nizolar ustiga shiddatli syujet bilan qurilishi talab etiladi. Behbudiyning "Padarkush" dramasi misol qilsak: "Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo'q. Bu badbaxtlikka sabab tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi".

Dramada keltirilgan ushbu parchada jamiyatdagi johillik va qahramonlar hayotidagi chorasizlik tasvirlab berilgan. Dramatik janrning ifodali o'qish bilan qanday aloqasi bor? Bu orqali o'quvchi qahramon ruhiyatini ovoz orqali ochishni tinglovchida emotsional ta'sir yaratishni o'rganadi. Keltirilgan parcha orqali esa qahramonlarning ruhiy holati va og'ir vaziyati ifodalanadi, ifodali o'qish vositasida tinglovchi ushbu his-tuyg'ularni sezadi.

Ifodali nutqqa erishishda xalq og'zaki ijodining o'rni - bu o'quvchilarga doston, maqol, qo'shiq, ertak va yalla kabi og'zaki ijod namunalari orqali so'zlarning ohang urg'u, ritm, emotsional ifodasini tabiiy tarzda egallash imkonini beruvchi metodik manba hisoblanadi. Misol uchun, dostonlar orqali inson o'z nutqiga jo'shqinlik va ritorik mahorat olib kiradi, nutqining samarali bo'lishiga erishadi. Ertaklar orqali esa o'z tasavvur olamini boyitib, voqealarni qiziqarli va mantiqiy izchil hikoya qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Shuningdek, maqollar ham mavjud bo'lib, ular inson nutqiga mantiqiy quvvat beradi va so'zlovchining nutq madaniyatini oshirib beradi va tez aytishlar ham o'z navbatida ifodali nutqqa erishishda samarali yo'l bo'ladi. Tez aytishlar inson nutqidagi tutilishlarni yo'qotadi va uning jumllarini aniq, tushunarli va mantiqiy izchillik bilan aytilishiga yordam beradi. Turli adabiy janrdagi matnlarni o'qishda nutqni ifodali qilish mumkin bo'ladi.

Xususan, epik janrning ifodali o'qishdagi ahamiyati: epik matnlarni ifodali o'qish orqali o'quvchilar syujetni jonli va mantiqiy ketma-ketlikda yetkazadi va epik janrda muallif obyektiv voqelikni chetdan turib tasvirlaydi. Shuningdek, epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqealar tasvirlanadi, so'z vositasida o'quvchi tasavvurida reallik kartinkalariga monand badiiy voqelik yaratiladi [2, 187]. Mashhur metodist olim M.A. Ribnikova ifodali o'qishni adabiyotini o'qitishning poydevori deb hisoblaydi. "Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning asosiy shakli". Uning fikricha, doston kabi katta hajmli asarlarda matnining ichki musiqiyliigi va ritmi faqat ohang (intonatsiya) orqali kitobxonning

ongiga yetib boradi. Epik janrga Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridan misol qilib olsak, “O‘tgan kuni xufton paytida mulla Fazliddin o‘zlaridan besh-olti uy narida turadigan bir xattot oshnasinikida iftor qilib o‘tirganda, qandaydir noma’lum kishilar uning uyiga bostirib kiradi”. Keltirilgan ushbu parchada epik janrga xos jihatlarini uchratish mumkin, xususan, vaqt va makon, syujet va muallif tomonidan xolis bayon qilinishi uchraydi. Agar parcha oddiy qilib o‘qilsa, unda so‘zlovchi nutq davomida o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Shuning uchun bunda ifodali o‘qishga oid tavsiyalardan foydalanish o‘rinli. Jumladan, matnda eng muhim so‘zlarni ovoz bilan ajratib ko‘rsatish, ya’ni bunda mantiqiy urg‘ular ham muhim ahamiyat kasb etadi va psixologik pauza, grammatik pauzalar, matnda vergul bor joylarida nafas rostlab, voqealar ketma - ketligini ajratish ham nutqni samarali qiladi.

Epik asarlarni ifodali o‘qishda kichik metodik tavsiya: matni sahna harakati bilan uyg‘unlashtirish orqali ifodali o‘qish va dramatik effektini birlashtirish, ya’ni epik janrni sahna element bilan praktik metodik vosita sifatida ishlatish. Agar keltirilgan ushbu metodik tavsiya amalda qo‘llanilsa, ko‘pchilikda yuz beradigan kamchiliklar bartaraf etiladi. O‘quvchi matndagi voqeani jismoniy harakatlar bilan bog‘laganda, uning miyasida matn va harakat zanjiri paydo bo‘ladi. Bu usul matni yodlashni osonlashtiradi va darsning samaradorligini oshirishda yordam beradi. Ikkinchidan, aksariyat kishilar nutq so‘zlayotgan paytda hayajon sababli mimikalarini boshqara olmay qoladi, ya’ni tana qotib qoladi. Bu metod orqali esa tananing harakatga kelishi va ovozni erkin chiqara olishi ta‘minlanadi. Harakat hayajonni energiya sifatida tashqariga chiqarib yuboriladi, natijada ijrochi o‘zini ekin va ishonchli his qiladi.

Lirik janr- bunda so‘zlar va misralardagi ritm, takroriy ohang va hissiy urg‘u o‘quvchining ifodali nutqini rivojlantiradi. Lirikaning bosh xislati shoir qalbida yuz beradigan kechinma, shu kechinma uyg‘otgan tuyg‘ularni so‘z orqali voqea qilish san’ati [4, 204]. Lirik janrda lirik qahramon obrazi hosil etiladi va hayot, dunyo lirik qahramon orqali aks etadi [5, 205]. Xalq qo‘shiqlaridan “Alla”ni misol qilib olsak: “Alla bolam, oppog‘im, bog‘chalarda yaprog‘im, Jigari pora onangman yuragimda chirog‘im, alla”. Keltirilgan ushbu alla - o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng ta‘sirli lirik namunalardan biri. Uni o‘qish oddiy matn o‘qishdan farq qilib, ona va bola o‘rtasidagi ilohiy bog‘liqlikni, mehr va dardni aks ettirishi lozim. Shuningdek buni aytishda so‘zlovchi emotsional urg‘u va kontrastlikka e’tibor qaratishi lozim. Buning ifodali o‘qish bilan bog‘liqligi shundaki, so‘zlarning urg‘usi va ohangini sezadi, tinglovchida hissiy ta‘sir ko‘rsatishi bilan bo‘g‘liq. Lirik matnlarni

ifodali o'qishda kichik metodik tavsiya: bu – “Rangli sinesteziya” metodi. Lirik she'rlarda kayfiyat tez o'zgardi, shuning uchun ham bu metod ovoz tembrini hissiy ranglarga bog'lashga asoslangan. Bunda o'quvchi matnni o'qishdan oldin undagi har bir bandni “ranglarga” ajratib chiqadi. Misol uchun, she'rda keltirilgan sog'inch bandini - havorangga, isyon va g'alayon ifodalangan qismini esa qizil rangda va tinchlik, sokinlik tasvir etilgan bandini yashil rangda bo'lishi mumkin. Agar keltirilgan ushbu metod amalda qo'llanilsa, o'quvchilar matnni o'qish davomida ovozini tabiiy va o'zgaruvchan chiqishiga erishadi, natijada sun'iy ohangdorlil yo'qoladi. Ikkinchidan, o'quvchi ranglar almashinuvi orqali o'qiyotgan bo'lsa, keng auditoriya u uchun hayajon olib kelmaydi va bu metod bilan o'qilgan she'r tinglovchining ham o'quvchining ham xotirasida “vizual xotira” bo'lib muhrlanadi.

Dramatik janr - monolog va dialoglar orqali qahramon ruhiy kechinmalarni ovoz bilan jonlantirish va nutqining dramatik ta'sirini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, dramatik asarlarda munosabatining o'ziga xos aks ettirilishi o'quvchi yoki tomoshabinlar ongiga, idrokiga yetkazish masalasi turadi [6, 59]

Dramatik janrga misol qilib, “Shu kecha tushimda xoqonimizni ko'rdim, bo'z bir otg'a mingan, qo'llarinda qilich, yiroqlarg'a qarab turg'anlar edi”. Parchada asar qahramonlarining tasvirlanish holat aks ettirilgan va Fitratning “Abulfayzxon” dramasida sahna vaziyatlarni vizualizatsiya qilib o'qish mumkin, unda qahramonlarning kayfiyati, vaziyatning dramatik ta'siri va sahna harakatlari ifodalab beriladi. Dramatik asarlarni ifodali o'qishda kichik metodika: bu metodikada dramatik asardagi bir xil jumlaning bir necha kishi har xil emotsional bo'yoqda o'qiydi. Bu asardagi umumiy kayfiyatni yaratishga yordam beradi. Buning natijasida o'quvchilari jamoaviy ritm hissi va ovoz diapozoni kengayadi. Bu metodni amaliy ahamiyati: birinchidan bir xil jumlaning besh xil odam besh xil holatda o'qiganda, o'quvchi matnning ko'p qatlamli ekanini ko'radi. Bu esa o'quvchilarda to'g'ri o'qishim kerak degan qo'rquvni yo'qotadi va unda ijodiy erkinlik uyg'onadi. Ikkinchidan, o'quvchilarda sinestetik idrok rivojlanadi. Bitta jumlaning turli bo'yoqlarda takrorlanishi o'quvchi miyasida o'sha so'zning shakli, turkumi, tuzilishi haqida tasavvur uyg'otadi. Bu esa o'z navbatida talabgorlarning har qanday matnni tahlil qilmasdan, instinktiv ravishda to'g'ri o'qishga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ifodali nutq shaxsning nutq madaniyati, estetik didi va badiiy tafakkuri bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, adabiy janrlarni ifodali o'qish orqali ham o'quvchida nutq madaniyati, hissiy idrok va mantiqiy fikrlash rivojlantirildi. Bundan

tashqari, matn janriga qarab harakat va nutqni birlashtirish o'qish sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi va samaradorlikka yetaklaydi. Tavsiya etilgan metodlar esa o'quvchilarni shunchaki matnni o'qishga yoki yod olishga emas, balki undan mahorat bilan foydalanishga va tajribali so'z ustasiga aylanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda ifodali nutqni shakllantirishda matnning janrini hisobga olish juda muhimdir. Xalq og'zaki ijodi, lirik, epik va dramatik matnlarning har biri o'quvchi ovozi turli tomondan rivojlantiradi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi nuqning tabiiyligi, obrazlilik va ohangdorligini ta'minlasa, badiiy janrlar esa o'quvchilarda fikrini mantiqiy va hissiy, ta'sirchan yetkazish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ifodali o'qish praktikumi jarayonida ushbu manbalarni integratsiyalashgan holda qo'llash o'quvchilarning nutq madaniyati, badiiy tafakkuri va ijodiy faolligini oshiradi. Xalq og'zaki ijodi va adabiy janrlarni uyg'unlashtirgan holda qo'llash ifodali o'qish asosida o'rganish ifodali nutqni shakllantirishda samarali metodik vosita sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirzayev T. O'zbek folkloti. – Toshkent, 2021.
2. Quronov Dilmurod. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Akademnashr, 2004.
3. Umirov H. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2004.
4. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. — Toshkent: Innovatsiya–Ziyo, 2022.
6. Google.com